

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA BOLALARNI MA'NAViy-AHLOQiy QADRIYATLAR RUHIDA TARBiyALASH

O'tasheva Lola,

maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti

Yoshlar tarbiyasini ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar bilan uyg'un holda tashkil etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Chunki milliy qadriyatlar shaxsni shakllantirishda muhim va asosiy omil hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan tarbiya jarayonida foydalashning mazmuni va o'ziga xos usulari sharq mutafakkirlari Al-Farobiy, Abu-Rayxon Beruniy, Ibn-Sino, Maxmud Qashg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz, Koshifiy va boshqalarning ta'limiy-ahloqiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu asarlar hozirgi davrda ham qadriyat sifatida, ham yoshlarda yuksak ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim tarbiyaviy dastur deyshimiz mumkin. Allomalarning mazkur ta'limiy-ahloqiy asarlari qadriyat sifatida milliy tarbiyaning asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhimdir. Bular:

- birinchidan, odob-axloq tarbiyasidir. Bu bolalarni go'daklikdan boshlab to'g'ri tarbiyalashdan iboratdir. Ibn-Sinoning «Tib qonunlari»ning I jildida «Farzand tarbiyasi» bo'lishi bolalarni tarbiyalashning ana shu muhim davriga bag'ishlanadi.

Milliy tarbiya an'analari odob-axloqqa bunday katta e'tibor «Insonda axloqiy kamolot – hayot mazmuni va maqsadi, burch va mas'uliyat, baxt, diyonat, yaxshilik, yovuzlik, haq va nohaqlik to'g'risidagi tushunchalarning shakllanishiga asos bo'ladi. Insonning bilimi, kasbi, hunari, malakalari ham muayan darajadagi axloq va odob asosida shakllanadi»¹.

Bu borada keksa avlodning boy tajribasi muhim rol o'ynaydi. Chunki keksalarning vazminlik, o'ylab, mulohaza yuritib ish ko'rishi kabilar ma'naviy boylik sanaladi.

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama ma'naviy barkamol inson sifatida shakllantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma'naviat – yengilmas kuch» nomli kitobida «Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros madaniy meros madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»², - deb ta'kidlaydi.

Haqiqatan ham qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratmasdan turib, bu muhim vazifani amalga oshirib bo'lmaz edi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-ahloqiy negizlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'likdir. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqliq;
- halqimizning ma'naviy merosini saqlash va rivojlantirish;
- inson o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik dan iboratdir.

Zero, yosh avlodning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlardan tarkib topadi. Asrlar davomida xalqning ma'naviy extiyojlari asosida shakllangan qadriyatlarda olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni o'z ongida shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, yoshlarga mustaqil respublikamiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladi.

Bu esa o'z navbatida umuminsoniy va milliy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini chuqur o'rganishni talab etadi.

Mazkur vazifani amalga oshirishda ta'lim-muassasalari soha hisoblanadi. Ta'lim tarbiya oldiga qo'yilgan muhim maqsad ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiya mazmunini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish va uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashni nazarda tutadi. Ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aqlzakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu-istaklari, e'tiqodi, ahloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi.

¹ Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари.: Университет, 1998, 121-б

² И. А. Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Манавият, 2008, 29 б.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Shu bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tarixiy bosqichiga ega, hayot sinovidan o'tgan, avloddan-avlodga o'tib ijtimoiy taraqqiyotda xizmat qiluvchi ijtimoiy xodisadir. Shuningdek, jamiyat rivojining negizi, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarini ifodaluvchi va saqlovchi qudratli omildir. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlar ustuvorligiga erishish yosh avlod tarbiyasining omilidir.

Yana bir muhim masala – yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatishdir. Tariximizda axloqiy qadriyatlarining sarchashmalari uzoq-uzoq davrlarga borib taqaladi. Zardushtiylik ta'limoti islomning axloqiy tamoyillari xalq pedagogikasining axloq-odobga doir o'g'itlari ham tarbiya mezonlari bo'lib hisoblanadi.

Yana bir muhim jihati bu inson omili masalasidir. Mazkur omil axloqiy va aqliy kamolot muammosidir. Ana shu omil vatan millat manfaatlarini bilan bog'liq bo'lib, insonda fidoiylik, milliy iftixor tuyg'ularini kamol toptiradi. Masalan, jadid ma'rifatparvarlari ana shunday insonlar bo'lib, millat vatan manfaati uchun kurash, milliy iftixor tuyg'usini o'stirishda yoshlarga ibrat namunasidir.

Yosh avlodni qadriyatlar asosida tarbiyalashni yana bir muhim jihati – bu ularni mehnat qilishga, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, xususiy mulkchilik xislatlarini o'rgatishda adolatlilik, e'tiqodlilikni tarkib toptirishdir. Bu Vatan, xalq manfaati uchun fidoiylik ko'rsatishda eng muhim fazilatlar bo'lib hisoblanadi.

Lekin bu muhim vazifalarni amalga oshirishda ma'lum negativ holatlar ham yuz bermoqda. Buning asosiy sababi ham ta'lim muassasalarida tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalana olmaslikdir. Bu borada fan-texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalarni yoshlarga o'rgatib, qadriyatlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'un holda tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim iste'moliga kiritish maqsadga muvofiq. Zero, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik, tadbirkorlik ham yetuk axloq-odob ifodalangan qadriyatlarga tayanishi zarur. Ana shundagina qadriyatlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib, davlatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishiga xizmat qiladi.

Qadriyatlarining ta'lim-tarbiyaga xizmat qilishiga daxldor yana bir xususiyati yoshlarga uning mehr-muruvvat, xayr-ehson xislatlarini singdirishdan iboratdir. Mazkur fazilatlar ham jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi bilan bog'liqdir. Agar ta'lim muassasalarida bu fazilatlar yosh avlod ongiga singdirilsa, ular ertangi mutaxassis sifatida Vatanimizni obod etish, xalqimi farovonligiga o'z hissalarini qo'shadilar, albatta.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan tarbiya jarayonida foydalanishning Yana bir jihati ularning yosh avlodga milliy g'ururni shakllantirish bilan bog'liq masalalardir. Har bir yoshga shu vatanda yashash tuyg'usini, ona-zamin, yeru osmonni sevish, atrof-olam barchasi insonga xizmat qilishini his etish va bundan g'ururlanish tuyg'ularining paydo bo'lishiga undaydigan qadriyatlar san'at va tarixiy asarlar, badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, kino, teatr va boshqalarda o'z ifodasini topgan va bular yosh avlod ongi va qalbiga bevosita samarali ta'sir etadi.

Qadriyatlardan foydalanishning yana bir muhim jihati ta'lim va tarbiyaning uzviy birlikda olib borilishidir. O'qitish shakl va metodlarida qadriyatlardan foydalanishda ilg'or texnologiyalar, fan va texnika yutuqlarini qo'llash, odob-ahloqqa oid mashg'ulotlar tizimini yaratish, "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Ma'naviyat asoslari", "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" o'quv fanlarini o'qitishning asosiy negizini tashkil etishi zarur. Bunday mashg'ulotlar hozirgi davrda ta'lim-tarbiyaga qo'yilayotgan talablar bilan qadriyatlar uyg'unligida tashkil etilishi muhim. Har qanday zamonaviy ta'lim usullar, qadriyatlardan uzilib qolmasligi va ular o'z zaminiga ega bo'lishlari zarur.

Qadriyatlarining mustaqil fikrlashni shakllantirishda ham o'rni benihoya. Bu borada o'quv-biluv jarayonida o'quvchilarning aqliy tarbiyaga doir muhokama yuritishga o'rganish, o'z fikrini asoslay olish, tanqidiy fikrlash, xulq-atvor yoki xatti-harakatlarni solishtirish, qiyoslash, munozara yuritish, o'z fikrini dalillar keltirish bilan isbotlash kabilar katta ahamiyat kasb etadi.

Demak, qadriyatlar asosida yosh avlodning ma'naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirish xususan, intizomlilik, irodalilik, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga intilish, ularni yaxshi odatlarga o'rgatish, axloq qoidalari bilan tanishtirib borish, yaxshini yomondan, mumkinni mumkin bo'lmagandan ajratib olishga o'rgatish, hayotni sevishga, umuman olganda komil insonni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan talablar bo'lib, bular qadriyatlarni o'rganishda tizimli yondashuv, ishontirish, isbotlash, munozara, mantiqiy mulohaza yuritish, ibrat-namuna ko'rsatish, ishontirish, o'z fikrini dalillash, xulosa chiqarish, savol-javob va boshqalar orqali ijobiy natijalarga erishiladi.

Bu xislatlar "Dialog-darslar, "Munozara-darslar", "Debatlar"da va boshqa interfaol metodlar orqali ayniqsa samarali bo'ladi.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Xulosa qilib aytganda hozirgi davrda ta'lim-tarbiyada qadriyatlarining ahamiyati haqida juda ko'p maqolalar, tavsiyalar va metodik qo'llanmalar chop etilmoqda. Lekin ularning barchasi targ'ibotdan iborat bo'lib, aniq tavsiyalar nazardan chetda qolmoqda. Bu borada qator muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun pedagogik qadriyatlarni ajratib olish, ularni bir tizimga keltirish, eng qulay shakl va metodlarni aniqlash va nihoyat ta'lim iste'moliga kiritish muhim va zarurdir.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>
2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).
3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>
4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>
5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>
6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-877X.2021.00078.3.](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>
7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>
8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>
9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>
10. Бердиева Мухаббат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>
11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>
12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>
13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>
14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

15. Aliyeva, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaeva. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412-415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayeva, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

24. Mamatuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.